

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 3 (15)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Қозимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi SHAYBONIY HUKMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI	5
2	Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI	10
3	Адилов Абдор Анварович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН	16
4	Бабаджанов Хасан Бахтиёрлович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ	27
5	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА	36
6	Габриэльян Софья Ивановна ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА	43
7	Дорошенко Татьяна Ивановна ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	53
8	Ishanxodjayeva Zamira Raimovna ИККИНЧИ ЈАҲОН УРУШИ YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	62
9	Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	71
10	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI	77
11	Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN‘ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI	85
12	Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	91
13	Musayev Azizbek Baxridinovich MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI	103
14	Nazarov Xumoyun Alisherovich MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI	110
15	Нарбеков Абдикамил Вафаевич ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ	120
16	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA	126

17	Очилдиев Файзулла Бабакулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	144
18	Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich XORAZM VONASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR	152
19	Солиев Махмуджон Махамаджонович ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОИЙ Қўллаб-қувватлаш омили сифатида: ишчи таъминоти бўлимлари фаолияти (1941–1945 йй.)	159
20	Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)	167
21	Usarov Umid Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI	174
22	Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI	184
23	Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUXORO – XIVA MUNOSABATLARI	191
24	Холикулова Шахноза Боймухамматовна ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ	200
25	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ	207
26	Yunusova Xurshida Erkinovna MAMLAKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI	214

Yunusova X.E.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası professori, t.f.d.

O‘zbekiston Milliy universiteti universiteti

khurshida@mail.ru

MAMLUKAT QISHLOQ XO‘JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada XX asrning ikkinchi yarmida SSSR qishloq xo‘jaligi sohasida o‘tkazilgan islohotlarning tarixiy bosqichlari va ularning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, sovet davrida qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va kimyolashtirish jarayonlari, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining islohotlar muvaffaqiyatiga to‘sqinlik qilgan jihatlari tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan. Maqolada agrar siyosatdagi tizimli inqirozning sabablari va uning ittifoq iqtisodiyotiga ta‘siri bo‘yicha xulosalar shakllantirilgan. Maqola O‘zbekiston Milliy Davlat arxivi fondlaridagi arxiv xujjatlari, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, monografiya, risolalar asosida mamlakatimizning sovet davridagi qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilgan islohotlar tarixiga bag‘ishlanib, mavzuga oid xulolalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi, agrar islohotlar, qo‘riq yerlar, mexanizatsiya, kolxoz, sovxoz, ma‘muriy-buyruqbozlik, sotsialistik sektor, oziq-ovqat, g‘alla, iqtisodiy inqiroz.

KIRISH

Ikkinchi jahon urushi yillari sovet hukumati qishloq xo‘jaligi sanoatni xom ashyo, aholini oziq-ovqat bilan ta‘minlashdan tashqari, frontni ham to‘la ta‘minlash vazifalarini ham bajardi. Agar urush arafasi, 1940 yilda butun sovet mamlakatining aholisi 194,1 million kishi bo‘lgan bo‘lsa, ularning 131,0 millionni yoki 67,5 foizi qishloq aholisidan iborat bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligi tuzilmasida sotsialistik sektor ustuvor bo‘lib, mamlakatda 236,9 ming kolxoz va 4,2 ming sovxozlarda 18,7 million xo‘jalik uyushgan[1] bo‘lib, samaradorlik past bo‘ldi. Ayni paytda dushman tomonidan bosib olingan hududlarda g‘allaning jami 38 foizi, qand lavlagining 84 foizi yetishtirilgan, yirik shoxli qoramollarning 38 foizi jamlangan[2], mamlakat aholisining qariyb 40 foizi istiqomat qilgan edi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarga kelib sovet hukumati oldiga qator murakkab vazifalar turdi. Urush yillari mamlakat hayotining asosi bo‘lgan qishloq xo‘jaligiga jiddiy zarar yetgan bo‘lib, 1946-yildagi qurg‘oqchilik esa vaziyatni yanada og‘irlashtirgan, kuchli ocharchilikka xavf solgan davrlar bo‘ldi. Davlat keng ko‘lamli o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun yetarli resurslarga ega bo‘lmasada, urushdan keyingi yillar, 1950 yillarda urushdan keyingi yillardagi tiklanish davri tugadi va SSSR hukumati uch yil davomida kelajakda rivojlanishi

mumkin bo'lgan salohiyatni yarata oldi[3]. Lekin, 1950 yillardayoq mamlakat qishloq xo'jaligining rivojlanish ko'rsatkichlari yomon bo'lib, 1953-yilda asosiy qishloq xo'jalik ekini g'allaning yalpi hosili 1950-yil darajasida bo'ldi va urushdan oldingi darajadan ancha past bo'ldi. G'alla tayyorlash oziq-ovqat va urug'lik ehtiyojlari uchun zarur bo'lganidan ancha past bo'ldi va bu mamlakatni navbatdagi ocharchilik yoqasiga olib keldi[4]. Stalin hukmronligining so'nggi yillarida iqtisodiyotning ijtimoiy yo'nalishini kuchaytirish, yengil sanoat va qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish orqali uning rivojlanishiga yangi turtki berish zarurati yetilib keldi. Shu tariqa qishloq xo'jaligini isloh qilishning zarurligi yuzaga keldi.

1953-yil bahorida I.V. Stalin vafotidan so'ng mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar uchun "imkoniyatlar darichasi" kengaydi. 1953-yil yozida SSSRda agrar islohotga tayyorgarlik ko'ri-la boshlandi va tez orada qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi 1953-yil 3-7-sentyabr KPSS MQ plenumida ko'rib chiqildi. Plenumdagi ma'ruzasida N. S. Xrushchev qishloq jamoalariga rahbarlik qilishning byurokratik usullarini bartaraf etish, kolxozlarga xo'jalik huquqlarini berish zarurligini ta'kidladi va plenumda qishloq xo'jaligi xodimlarining ishlab chiqarishni rivojlantirishdan moddiy manfaatdorligi masalasi birinchi marta kun tartibiga qo'yildi. KPSS MQning "SSSR qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unda qishloq xo'jalik mahsulotlarining tayyorlov va xarid narxlari ancha oshirildi, shaxsiy yordamchi xo'jaliklar tomonidan mahsulotlarni majburiy yetkazib berish normalari pasaytirildi, ularga soliq solishning qat'iy so'mmalari nazarda tutildi. Kolxozchilarning hayoti qishloq xo'jalik organlarining 1935-yildagi Namunaviy ustavi bilan tartibga solindi va kolxoz raisi tinimsiz jazolash, sudga berish bilan qo'rqitish, so'kish obyekti bo'lib qoldi. Ayni paytda kolxoz raisi, kolxoz boshqaruv organlari mustaqil qaror qabul qilish erkinligidan ajralib bordilar[5].

N.Xrushev qishloq xo'jaligini yaxshi tushunganligi sababli oziq-ovqat masalasini hal qilmasdan turib, belgilangan rejaga yetishib bo'lmasligini yaxshi bilardi. Lekin, ko'pgina Rossiya olimlarining ta'kidlashicha, N. Xrushchyovning qishloq xo'jaligida o'tkazgan islohotlari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan. N.S.Xrushchyov tomonidan kiritilgan ko'plab tadbirlar ko'pincha o'ylanmagan xarakterga ega bo'ldi. Bularga makkajo'xori "vasvasasi", qishloq xo'jaligida ko'p qavatli turar-joy binolarining qurilishi, xalq xo'jaligi boshqaruvini qayta-qayta qurish kabilarni kiritish mumkin edi. Shuningdek, qishloq xo'jaligidagi islohotlar davomida VKP(b) MQ va SSSR Ministrlar Sovetining 1950 yil 7 iyundagi "Mayda xo'jaliklarni yiriklashtirish tadbirlari to'g'risida"gi Qarori chiqdi. Undan kelib chiqqan holda mayda kolxozlarni yiriklashtirish tadbirlari boshlandi. Natijada faqatgina bir yilda mamlakat bo'ylab kolxozlar 225 mingtadan 125 mingtaga qisqardi. 1952 yil oxiriga kelib 94 mingtaga yetdi[6]. Lekin, kolxozlarni yiriklashtirish islohotlari qishloq xo'jaligi sohasida ijobiy natijalarga erishish, yirik qishloqlar barpo etish kabi ko'zlangan natijalarni bermadi.

N. Xrushevning o'zi boshlagan islohotlarini amalga oshirish uchun avvalo g'alla yetishtirish masalasiga alohida e'tibor bilan qaradi. 1954 yilda bo'lib o'tgan KPSS MQning fevral-mart plenumida mamlakat sharqi - Qozog'iston, G'arbiy

Sibir, Volgabo‘yi, Uralda qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish hisobiga ekin maydonlarini ko‘paytirish qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi deb e‘tirof etildi. Albatta bu tadbirlar o‘sha davr uchun “inqilobiy chora” sifatida qabul qilindi. Biroq, kolxozlar son-sanoqsiz ko‘rsatmalardan bo‘g‘ilib, ma‘muriy choralarning samarasi ham kamayib bordi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni amalga oshirish zo‘ravonlik yo‘liga o‘tdi. Rejalashtirish haddan tashqari markazlashtirilib, belgilangan ko‘rsatkichlar xo‘jaliklarning nooqilona ish yuritishiga olib keldi. Natijada SSSRda o‘ta markazlashgan sovet xalq xo‘jaligi yutuqlaridan keng foydalanishga qodir emasligi ma‘lum bo‘ldi (YAHM bundan mustasno) va bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlardan orqada qoldi.

1957-yilda N.S. Xrushchev tashabbusi bilan boshlangan boshqaruvni “qayta qurish” jarayonida Sovnarkhozlar tomonidan boshqariladigan iqtisodiy rayonlar tashkil etildi. Ular mamlakat iqtisodiyotini nomarkazlashtirish, byurokratiyadan holi qilish, mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlarini kengaytirishga ko‘maklashishi belgilangan edi[7]. 1957 yilda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish iqtisodiy imkoniyatga qarab amalga oshirildi. Natijada, Novgorod va Pskov viloyatlaridagi zavod - fabrikalar Leningrad iqtisodiy rayonining Leningrad Xalq Xo‘jaligi kengashiga, Pavlodar, Akmolinsk viloyatlaridagi korxonalar Karaganda iqtisodiy rayonining Karaganda Xalq Xo‘jaligi kengashiga birlashtirildi. Shu tariqa geografik va iqtisodiy imoniyatiga qarab taqsimlagan bunday rayonlar, xususan, Uzoq Sharq, Sharqiy Sibir, G‘arbiy Sibir, Ural, Povolje, Shimoliy Kavkaz, Markaziy va Shimoliy Yevropa hududlariga qarab ajratilib, 15 ta respublika iqtisodiy rayonlarga birlashtirildi.

SSSR xalq xo‘jaligining muayyan territorial qismi iqtisodiy rayon deb atalib, bu mintaqalar mamlakatning boshqa mintaqalariga nisbatan o‘zining ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishi bilan ajralib turdi[8]. Iqtisodiy rayonlarga bo‘lish vaqtida mamlakatning siyosiy-ma‘muriy jihatdan bog‘lanishi ham maqsad qilib olingan. Har bir rayon mamlakatdagi kengaytirilgan sotsialistik takror ishlab chiqarishining bir butun tizimida rivojlanib, o‘z hissasini qo‘shgan. Bu hissa butun sotsialistik ishlab chiqarishning asosiy iqtisodiy qonuniga muvofiq ravishda rivojlanishini ta‘minlagan. SSSRdagi har bir iqtisodiy rayon umumittifoq xo‘jalik tizimidagi rayon bo‘lgan, ularning umumittifoq mehnat taqsimotida, umumdavlat xo‘jaligida o‘zining ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish o‘rni bo‘lgan va har bir iqtisodiy rayon o‘z rolini bajargan. Har bir rayon mamlakatdagi kengaytirilgan sotsialistik takror ishlab chiqarishining bir butun tizimida rivojlanib, o‘z hissasini qo‘shgan. Bu hissa butun sotsialistik ishlab chiqarish sotsializmning asosiy iqtisodiy qonuniga batamom muvofiq ravishda rivojlanishini ta‘minlagan[9]. 1962 yil 22 martda esa KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining “Qishloq xo‘jaligini boshqarishni qayta qurish to‘g‘risida”gi Qarori bilan SSSRning barcha respublikalarida kolxoz va sovxozlarning ishlab chiqarish hududiy boshqarmalari tashkil etildi. Partiya dasturlari, qarorlarida ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida belgilab berilgan rejalaridan so‘ng 1960 yilda birinchilardan bo‘lib Rossiya, Ukraina va Qozog‘iston SSRda Xalq xo‘jalik kengashlari tuzildi. 1962 yilda SSSR Xalq xo‘jaligi kengashi, 1962 yilda SSSR Oliy Xalq xo‘jaligi kengashi tuzildi[3. C.531.]. 1962 yilda O‘zbekiston SSR, Tojikiston SSR, Turkmaniston

SSR va Qirg'iziston SSRdan iborat Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni hamda Xalq xo'jaligi kengashining Nizomi qabul qilindi[10]. Mamlakatda eng katta iqtisodiy rayon RSFSR va Ukrainani birlashtirgan katta koordinatsiya Soveti[11] bo'lsa, ikkinchi Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni bo'ldi[12]. Mamlakatdagi barcha iqtisodiy rayonlar tarkibiga mamlakat, respublikalarning yetakchi ilmiy, loyihaviy, konstruktorlik institutlari birlashtirildi. KPSS MQ SSSR Davlat reja ko'mitasining vazifalari ham yangidan tashkil etilgan SSSR Xalq Xo'jaligi Kengashlariga berildi[13]. Biroq, Xalq xo'jaligi kengashlari tuzilgan dastlabki vaqtdan boshlab iqtisodiy rayonlar o'rtasida xom ashyo va mahsulot yetkazib berishda tushunmovchiliklar kelib chiqqan boshladi.

1961 yilga kelib mamlakatda iqtisodiy rayonlar 17 taga yetkazildi[14]. 1963 yilda qayta ko'rib chiqilib, 18 ta bo'ldi[15]. Biroq, iqtisodiy kengashlar faoliyati yuqoridan turib boshqaruvga asoslanganligi sababli natija bermadi. Milliy daromad esa 1961-1965 yillarda 5,7 foizgagina o'sdi. Bu avvalgi besh yillikka nisbatan ancha kamaydi. Xalq xo'jalik kengashlari o'rtasidagi xom ashyo, tayyor mahsulot yetkazib berishdagi "begonalik" partiya belgilab bergan rejalarni bajarish imkonini bermadi. Xalq xo'jalik kengashlari faoliyati 1966 yilga kelib tugatilib, iqtisodiy rayonlar soni 18 taligacha qoldi[16].

Ma'muriy - hududiy boshqaruv bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hududiy birlashmalari o'rtasida ham nomutanoslik keltirib chiqarganligi bois bu masala 1962 yil 25 noyabr KPSS MQ plenumida 123 ta qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hududiy birlashmalari yiriklashtirilib, 77 taga yetkazildi. 1962 yil 19-23 noyabr plenumida bu masalani ko'rib chiqilib, bu shoshilinch qaror bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Plenum qaroriga ko'ra hududlarning ishlab chiqarishi, salohiyati, mehnat resurslari, geografik joylashuvi e'tiborga olinmagan holda bu tashkil etilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hududiy birlashmalari o'zini oqlamadi.

Mamlakatda qishloq xo'jaligini rivojlantirish tarmoqni mexanizatsiyalashtirish bilan ham bog'liq deb, mamlakatda kolxoz ishlab chiqarishi ko'proq MTS ishiga bog'liq bo'ldi. 1957 yilda mamlakatda 7 903 ta MTSlar bo'lib[17], 1958 yil 31 martda SSSR Oliy Sovetining "Kolxoz qurilishini yanada rivojlantirish va mashina-traktor stansiyalari qayta qurish haqida"gi Qonuni asosida KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining 1958 yil 18 aprel 425-son qarori bilan mashina-traktor stansiyalarini (MTS) tugatildi. Texnika xizmati va ta'mir ishlari kolxoz va sovxozlarga berildi va MTSlar o'rniga texnik-ta'mirlash stansiyalari (RTS) tashkil etildi. Ular tizimida davlat texnik inspektorlari lavozimlarini joriy etildi. Texnik inspektorlarning vazifasiga mashina-traktor parkidan texnik foydalanish masalalarida nazoratni amalga oshirish va xo'jaliklarga yordam ko'rsatish kirdi. Shuningdek, RTSlarning asosiy vazifasi qishloq xo'jalik texnikasini ta'mirlash va xizmat ko'rsatish, uni sotish, kolxozlarda yangi texnikalarni joriy etishga ko'maklashish kabilardan ham iborat bo'ldi. 1959 yilga kelib MTSlar bazasida tashkil etilgan RTSlar mamlakat bo'ylab soni 3 532 taga yetdi[18].

1959 yilda KPSS MQ Bosh sekretari N.Xrushev partiyaning XX1 s'ezdiga qilgan ma'ruzasida mamlakatda "Kommunizmning moddiy texnika bazasini vujudga keltirish va shu asosda SSSR aholisining turmushini dunyoda eng yuksak darajaga ko'tarishni ta'minlash"[19] dasturi ishlab chiqiladi va bu dasturning

bajarilishi 7 yilga mo'jallandi. Ma'ruzada ta'kidlanishicha, SSSR 1965 yildan tahminan 5 yil keyin AQSHdagi ishlab chiqarish darajasiga yetib olishi va bu darajadan o'zib ketishi lozim edi. Belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida 1961 yil 2 fevralda SSSR Ministrlar Sovetining "Qishloq xo'jalik texnikasini, texnika zahira uskunalarini, mineral o'g'itlarni va boshqa moddiy-texnik uskunalarini sotish, kolxoz va sovxozlardagi mashinalarni ta'mirlash, foydalanishni tashkil etish maqsadida SSSR Ministrlar Soveti qoshida Butunittifoq birlashma ("Soyuzselxoztexnika") tashkil etish haqida"gi qarori chiqdi[20]. "Soyuzselxoztexnika" birlashmasi texnik nazorat o'rnatishi, muhandislik ishlarini bajarish bo'yicha asosiy bo'g'in bo'lib qolishi kerak edi. Birlashma qoshidagi inspektorlar yiliga ikki marotaba mashina-traktor parklaridagi texnikani nazoratdan o'tkazishi kerak bo'ldi[21].

1961 yil 17 oktyabrdan 31 oktyabrgacha bo'lib o'tgan KPSS MQning XXII s'ezdida kommunistik partiya tarixida uchinchi marotaba "sovet xalqini kommunizmga yo'naltirishga mo'ljallangan" KPSS Programmasi qabul qilindi. Unda ham qishloq xo'jaligi kompleks mexanizatsiyalashni qo'llash va avtomatika vositalaridan foydalanish, texnika iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan va har bir zona sharoitiga mos keladigan mashinalar tizimini joriy qilish qishloq xo'jalik mehnati unumdorligini oshirish uchun asos bo'lishi belgilandi. Qishloq xo'jaligini tez elektrlashtirishni eng muhim vazifalardan biri deb hisoblandi. Programmada barcha sovxoz va kolxozlar ishlab chiqarish va maishiy maqsadlar uchun davlat energetika tizimidan, shuningdek qishloq elektr stansiyalari qurish yo'li bilan elektroenergiya bilan ta'minlanadi, deb belgilab qo'yildi. Shuningdek, butun aholining va xalq xo'jaligining qishloq xo'jalik mahsulotlariga ehtiyojlarini to'la qondirishi maqsadida, qishloq xo'jalik mahsulotlarining umumiy hajmini 10 yil mobaynida taxminan ikki yarim marta oshirish, 20 yil uch yarim martta oshirish vazifasi qo'yildi. Sovet Ittifoqi birinchi o'n yillikda aholi jon boshiga asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha AQSHdan o'tib ketish rejasi belgilandi. Buning uchun avvalo qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyani qo'llanish va avtomatika vositalaridan foydalanish, texnika iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan va har bir zona sharoitiga mos keladigan mashinalar tizimini joriy qilish qishloq xo'jalik mehnati unumdorligini oshirish belgilandi. "Qishloq xo'jaligini texnika jihatidan qayta qurollantirish mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil qilishning eng progressiv forma va metodlari bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mehnatkashlarning madaniy-texnik saviyasini har tomonlama oshirish bilan birga qo'shib olib borish, yangi texnikani egallab olgan xo'jaliklarda malakali xodimlar tobora ko'payib borishi" belgilandi. Programmada belgilangan vazifalardan kelib chiqib, qishloq xo'jaligida qo'l mehnatining saqlanib qolishini oldini olish maqsadida mashina-traktor stansiyalari oldiga hamda "Selxoztexnika" oldiga qator vazifalarni qo'ydi.

Bunday rejalarni belgilanishi tabiiyki iqtisodiy rayonlarni mahsulot yetishtirish borasidagi o'rnini yanada mustahkamladi hamda SSSRda amal qilib kelingan ma'muriy-hududiy bo'linishga o'zgartirishlar kiritdi. 1959 yil KPSS MQning XXI s'ezdidan so'ng mamlakatda don tanqisligi hal etilganligi e'lon qilinsada, 1960 yillarda mamlakatda oziq-ovqat tanqisligi sezildi. Mamlakatning markaziy

qismlarida do‘kon peshtaxtalaridan yormalarning ba‘zi turlari, tuxum vermishel, sariyog‘, qaynatilgan sut, yarim tayyor go‘sht mahsulotlari yo‘qoldi, un va oq nonda uzilishlar boshlandi. Oziq-ovqat tanqisligini oldini olish maqsadida butun mamlakatda jo‘xori ekish avj oldirildi. 1960 yillarning boshiga kelib mamlakatda o‘zlashtirilgan yerlarning 4/1 qismiga jo‘xori ekildi va bu umumiy yerlarning 80 foizini tashkil etdi[22]. Shu o‘rinda alohida e‘tibor berish lozimki, sovet davlatida 1955-1964 yillar davomida g‘alla yetishtirish uch marotaba 1956, 1958, 1964 yillarda bajarildi xolos. 1961 yildagi g‘alla tanqisligi tufayli reja horijdan g‘alla sotib olish hisobiga bajarildi[22. C. 312.] va SSSR Amerika g‘allasini keng miqyosda sotib olishga kirishdi.

1963 yil 20-avgustda KPSS Markaziy Komitetining “Davlat non resurslarini tejash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq 1964-yilda g‘alla eksportini deyarli 4,5 mln tonnaga kamaytirish, ya’ni amalda nolga tushirish rejalashtirildi va amalda SSSR 1963 yil sentyabridan kapitalistik mamlakatlarga g‘alla eksport qilishni to‘xtatdi[23]. Biroq birgina tejamkorlikning o‘zi yetarli bo‘lmadi. Shuning uchun bir vaqtning o‘zida chet eldan g‘alla sotib olish dasturi ishlab chiqildi. 1963-yil 19-avgustda Markaziy Komitet Prezidiumi chet eldan bug‘doy sotib olish to‘g‘risidagi qarorni ma‘qulladi[23. C.30.]. 1963-yil dekabr oyida Sovet hukumati AQSHdan 12 million tonna don partiyasini sotib olishga majbur bo‘ldi va 1970-yillarga kelib don importi ko‘paydi. Chetdan g‘alla sotib olish SSSRda 1963-yildagi g‘alla inqirozining og‘irligini yengillashtirdi. Biroq, mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlariga talab kuchayib, ocharchilik xavf solmasada, lekin oziq-ovqat mahsulotlariga tanqislik doimo sezilib turdi. Non mahsulotlarini harid qilish uchun navbatga turish holatlari kuchayib ketdi. Bu xususan hatto, 1979 yilning yanvar oyida “Pravda” gazetasiga xalqdan 16 ta xat ham keldi[24].

1970-1980 yillarga kelib esa ish bilan so‘z o‘rtasidagi qarama - qarshiliklar, katta vazifalarni belgilashda, mustaqil qaror qabul qilishda bir qator muammolarni keltirib chiqardi[16]. Hatto, iqtisodiy rayonlar sotsialistik ishlab chiqarishning iqtisodiy qonunlariga muvofiq amalga oshirilishi bilan avvalo butun mamlakat ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni bajargan bo‘lsa, shunga binoan ular xo‘jalik kompleksidagi ixtisoslashtirilgan tarmoqlar umumittifoq ahamiyatiga ega bo‘lgan asosiy bo‘g‘in bo‘lib qoldi. Shu tariqa SSSR xalq xo‘jaligida qabul qilingan sotsialistik tuzumning iqtisodiy qonuniyatlariga asoslangan hududiy ishlab chiqarish - aslida mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish istiqbollari belgilab berdi.

Xulosa qilib aytganda, XX asrda SSSR qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlar zahirida iqtisodiy ko‘rsatkichlarni oshirish va oziq-ovqat mustaqilligiga erishish maqsadlari ko‘zlangan bo‘lsa-da, ularning aksariyati ma‘muriy-buyruqbozlik tamoyillari asosida olib borildi. Islohotlar natijasida soha mexanizatsiyalashtirildi, biroq rejani bajarish yo‘lidagi “intensiv hujum” ekologik va ijtimoiy inqirozlarni keltirib chiqardi. Xususan, yer va suv resurslaridan nooqilona foydalanish, noto‘g‘ri melioratsiya tadbirlari va tuproqning sho‘rlanishi yer unumdorligining keskin pasayishiga sabab bo‘ldi. Bu muammolar nafaqat soha

samaradorligiga to'siq bo'ldi, balki keyingi davrlar uchun ham og'ir ekologik va iqtisodiy meros bo'lib qoldi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Народное хозяйство СССР за 70 лет. Юбилейный статистический ежегодник. – Москва: Финансы и статистика, 1987. – 373 с.
2. Вознесенский Н.А. Военная экономика СССР в период Отечественной войны. – Москва: Госполитиздат, 1948. – 42 с.
3. История России. С древнейших времен до конца XX века. – Москва: АСТ, 2000. – С.526, 531.
4. Мамяченков В.Н., Материальные условия жизни семей промышленных рабочих и колхозного крестьянства Свердловской области в период послевоенного восстановления (1956-1953 гг.) // Историко-экономическое исследование. Екатеринбург: АМБ.2009. – 235.
5. Шликова О.В. Особенности колхозного производства в 1950-1960 – е годы // Известия Саратовского университета. 2011.-№11, -с. 54.
6. Ратьковский И.С., Ходяков М.В. История советской России. – Санкт-Петербург. Лань, 2001. – С.286.
7. Шестаков А. Политика Н.С.Хрущева в аграрной сфере: преемственность и новации // Отечественная история. 2006. - №6, - с. 116.
8. Костенников В.М. Развитие экономических районов СССР (перспективы и проблемы). Пособие для учителей. – Москва. Просвещение, 1977. – С.7.
9. Колосовский Н.Н. Теория экономического районирования. – Москва. Мысль, 1969. – С.295.
10. O'zR MA. R-2303, ro'yhat-1, yig'ma jild -1. 2-5 varaqlar.
11. O'zR MA. R-2303, ro'yhat -1, yig'ma jild -2. 27 varaq.
12. Rudin A. O'rta Osiyo yirik iqtisodiy rayoni // Qizil O'zbekiston. 1962 yil 13 aprel.
13. Коммунистическая партия Советского Союза в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Т.10. 1961-1965. – Москва. Изд. Полит. Лит, 1986. – С. 295.
14. O'zR MA. R-2303-fond, ro'yhat-1, yig'ma jild -2. 17 varaq.
15. Морозова Т.Г. Экономическая география России. – Москва. Юнити-Дана, - С. 342.
16. Палеев Ю.Н. Экономические районы СССР. <https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/106/995.htm>. (Murojaat qilingan ana 2025 yil 19 iyul.)
17. Mashina-traktor stansiyalari (MTS) 1929 yil 8 mayda SSSR Mehnat va mudofaa Kengashining “Mashina-traktor stansiyalari tashkil etish to'g'risida”gi qarori asosida tashkil etilgan.
18. Сельское хозяйство СССР. Стат сборник. – Москва. 1960. – с 41.
19. Коммунистическая партия Советского Союза в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Т.9. 1956-1960. – Москва. Изд. Полит. литературы, 1980. – С. 272.

20. Сельхозтехника (предприятие) // https://ru.wikipedia.org/wiki/Мурожаат_килинган_ана_2025_йил_19_июль.
21. O'z MA. R- 2469, ro'yhat – 2, yig'ma jild – 18, - 4 varaq.
22. Новейшая история отечества. XX век: Учеб.для студ.высш.учеб.заведений: Вып.2. – Москва. ВЛАДОС, 1999. – С. 309, 312.
23. Пивоваров Н. Зерновой кризис 1963-г. СССР и внешнеторговые коллизии его разрешения // Гуманитарные науки в сибире. 2019. Том 26, №1, - с. 29, 30.
24. Шубин А.В. От «застоя» к реформам. СССР в 1917-1985 гг. – Москва. РОССПЭН, 2000. - с. 112.

Юнусова Х.Э.

Д.и.н., профессор кафедры «История Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
khurshida@mail.ru

НАЧАЛО РЕФОРМ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ СТРАНЫ И ИХ ПРОБЛЕМЫ

АННОТАЦИЯ

На основе исторических источников также освещаются процессы освоения целинных и залежных земель, механизации и химизации сельского хозяйства в советское время, а также аспекты административно-командной системы, препятствовавшие успеху реформ. В статье сформулированы выводы о причинах системного кризиса в аграрной политике и его влиянии на экономику Союза. Статья на основе архивных документов из фондов Национального государственного архива Узбекистана, научных исследований зарубежных и отечественных исследователей, монографий, брошюр посвящена истории реформ в сельскохозяйственной сфере нашей страны в советское время и содержит тематические заключения.

Ключевые слова: сельское хозяйство, аграрная реформа, заповедные земли, механизация, колхоз, совхоз, административно-командная система, социалистический сектор, продовольствие, зерно, экономический кризис., заповедные земли, механизация, колхоз, совхоз, административно-командная система, социалистический сектор, продовольствие, зерно, экономический кризис.

Yunusova Kh.E.

DSc., professor at the department of «History of Uzbekistan»

National University of Uzbekistan

khurshida@mail.ru

THE BEGINNING OF REFORMS IN THE COUNTRY'S AGRICULTURE AND ITS PROBLEMS

ABSTRACT

The article analyzes the historical stages of reforms in the agricultural sector of the USSR in the second half of the 20th century and their economic efficiency. The processes of land reclamation and mechanization and chemicalization of agriculture, as well as the aspects of the administrative-command system that hindered the success of reforms, are also covered in historical sources. The article formulates conclusions on the causes of the systemic crisis in agrarian policy and its impact on the economy of the union. The article is devoted to the history of reforms carried out in the field of Agriculture of the Soviet period of our country on the basis of archival documents, scientific research of foreign and domestic researchers, monographs, brochures in the foundations of the National State Archive of Uzbekistan and contains thematic material.

Key words: Agriculture, agrarian reform, fallow lands, mechanization, collective farm, state farm, administrative-command, socialist sector, food, grain, economic crisis.